



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60410800 – Menejment
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60410800 – Menejment

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: HASANOV TOHIR ABDURASHIDOVICH

Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti

fan doktori (DSc)



A'zo: LALI GIORGIDZE

University of Neuchatel

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260012
Xulosa raqami	955
Xulosa sanasi	23.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Ipak yo'li ko'chasi, 82-uy. Guvohnoma: MAS № 0000243, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Menejment
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60410800
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000243, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60410800 – Menejment
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60410800 – Management
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60410800 – Менеджмент
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Menejer
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	350 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Ipak yo'li ko'chasi, 82-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini joriy etish va amalga oshirishga oid hujjatlar amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi davlat talablari hamda ta'lim tashkilotining ustavi va ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Taqdim etilgan tashkiliy tuzilma, moliyaviy, moddiy-texnik va inson resurslari, shuningdek ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlari ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur tashkiliy asoslarni yaratadi. Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli reja ishlab chiqilgan bo'lib, unda ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Menejment yo'nalishida ichki sifatni ta'minlash tizimining boshqaruv amaliyoti bilan uzviy uyg'unlashtirilgani ta'lim dasturining samaradorligini oshirish hamda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida oliy ta'lim tashkilotida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, joriy etish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash jarayonlari tizimli ravishda yo'lga qo'yilgani hamda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgani aniqlandi. Mazkur jarayonlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Davlat ta'lim standartlari va Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Ta'lim

dasturini ekspertizadan o'tkazish bosqichining joriy etilgani dastur mazmunining sifatini mustaqil baholash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda uning amaldagi talablarga muvofiqligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Menejment yo'nalishida nazariy boshqaruv bilimlarini amaliy boshqaruv ko'nikmalari, strategik fikrlash va zamonaviy menejment yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida yo'nalish umumiy hisobda muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish, joriy etish hamda takomillashtirish jarayonlari tizimli ravishda tashkil etilgani, ular amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilgani aniqlandi. Kompetensiyalarga asoslangan monitoring mexanizmlarining joriy etilgani, ish beruvchilar va soha mutaxassislari bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilgani, amaliyot bazalarining mavjudligi hamda "ta'lim–fan–ishlab chiqarish" integratsiyasi tamoyilining amaliyotga tatbiq etilgani ta'lim dasturining muhim ustunliklari sifatida baholandi. Shu bilan birga, ekspert komissiyasi 3.6-mezon bo'yicha talabalarning baholash tizimi yuzasidan fikr-mulohazalarini muntazam yig'ish, ularni tahlil qilish va natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rishga oid mexanizmlar yetarli darajada dalillar bilan asoslanmaganini qayd etdi hamda mazkur mezonni qisman muvofiq deb baholadi. Talabalardan baholash natijalari bo'yicha muntazam qayta aloqa olish va undan ta'lim jarayonini takomillashtirishda foydalanish mexanizmlarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq deb topildi. Shu asosda o'quv jarayoni va baholash tizimi yo'nalishi muvofiq deb baholandi hamda 3.6-mezon bo'yicha takomillashtirish tavsiya etildi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturiga qabul qilish jarayonlari oliy ta'lim tashkilotida tizimli, shaffof hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgani aniqlandi. Qabul mezonlari va talablar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Davlat ta'lim standartlari, vakolatli davlat organlarining qarorlari hamda

ta'lim tashkilotining ichki akademik siyosati hujjatlariga muvofiq belgilangan. Qabul tartiblarining ichki akademik siyosat hujjatlari bilan mustahkamlangani qabul jarayonining izchilligi, shaffofligi va xolisligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Talabalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur mexanizmlar shakllantirilgan bo'lib, ular ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishi hamda talabalarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Talabalar faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur inson resurslari, jumladan professor-o'qituvchilar, boshqaruv, texnik va yordamchi xodimlar salohiyati amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim tashkilotining ichki akademik siyosati asosida tizimli ravishda shakllantirilgani aniqlandi. Kadrlar tarkibini rejalashtirish, tanlash, rivojlantirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur mexanizmlar joriy etilgan bo'lib, ular ta'lim dasturining barqaror amalga oshirilishini ta'minlaydi. Menejment yo'nalishida professor-o'qituvchilarning ilmiy darajasi bilan bir qatorda amaliy boshqaruv tajribasiga ega bo'lishi ta'lim jarayonining amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish hamda bitiruvchilarda zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur mexanizmlar shakllantirilgan. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturining moddiy-texnik ta'minoti uning maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda kompetensiyaviy yondashuv talablariga muvofiq shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur o'quv auditoriyalari, laboratoriyalar, ustaxonalar (poligonlar) hamda ixtisoslashtirilgan o'quv xonalari mavjud bo'lib, ular o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish imkonini beradi. Axborot-resurslari va ta'lim infratuzilmasi talabalarning mustaqil

ta'lim olishi hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Menejment yo'nalishida xalqaro biznes ma'lumotlar bazalari, zamonaviy keys-resurslar va analitik platformalardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi talabalarda strategik fikrlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda amaliy tahlil kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan mazkur axborot-resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq deb topildi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Talabalarining baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish mexanizmi (3.6-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Xalqaro biznes-ma'lumotlar bazalari va keys-resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Talabalardan baholash tizimi yuzasidan muntazam qayta aloqa olish va uni tahlil qilish mexanizmini hujjatlashtirish.
- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Xalqaro biznes-ma'lumotlar bazalari va keys-resurslarga kirishni kengaytirish.
- ✓ Ish beruvchilar bilan amaliyot va loyihaviy hamkorlikni rivojlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Shahrisabz davlat pedagogika institutida 60410800 – Menejment bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini joriy etish va amalga

oshirishga oid hujjatlar amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi davlat talablari hamda ta'lim tashkilotining ustavi va ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash jarayonlari tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular Davlat ta'lim standartlari va Milliy malakalar ramkasi talablariga asoslangan. O'quv rejalari va fan dasturlari kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilgan, kompetensiyalarga asoslangan monitoring mexanizmlari joriy etilgan hamda "ta'lim–fan–ishlab chiqarish" integratsiyasi tamoyili amaliyotga tatbiq etilgan. Talabalarni qabul qilish jarayonlari shaffof, ochiq va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan, talabalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar, boshqaruv, texnik va yordamchi xodimlar salohiyati tizimli ravishda shakllantirilgan hamda ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur auditoriyalar, laboratoriyalar, ustaxonalar (poligonlar) va ixtisoslashtirilgan o'quv xonalari bilan ta'minlangan moddiy-texnik baza shakllantirilgan. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari (boblari) muvofiq deb topildi. O'quv jarayoni va baholash tizimi yo'nalishida 3.6-mezon qisman muvofiq deb baholandi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda ularni bartaraf etish va dastur sifatini yanada oshirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 60410800 – Menejment bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

